

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 660 sahifa.
2025-yil, 28-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQARISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонвич	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNII	549
Mardanov Aziz Yusupovich	
THE IMPORTANCE OF GREEN ENERGY IN THE ECONOMY OF FERGANA REGION: CURRENT TRENDS AND PROBLEMS	555
Khayrullaev Zoidjon	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	559
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	563
Muyassarzoda Fayziyeva	
MOLIVAVIY MEXANIZM SIFATIDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BELGILASHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	570
Abdullayev Erkinjon A'zamovich	
MAMLAKAT YAIM QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL USULLARI ASOSIDA PROGNOZLASH	578
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
XALQARO TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	585
Eshtaev Alisher Abdug'aniyevich, Ivatov Irisbeg	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBII VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	590
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	595
Abdujabbarov Abdulaziz Abdurashid o'g'li	
РОЛЬ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	600
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
BARQAROR MOLIVAVIY RENTABELLIK BANKLARNING DAROMADLILIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA.....	606
Umarov Davron Shavkatovich	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR.....	612
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ (LMS) В ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИИ И ЕЕ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЕ	618
Атабоева Шахризода Равшановна, Бекчанов Бекчан Юлдашевич	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА: ПЕРСПЕКТИВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	623
Киличева Ф.Б.	
DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA DEBITORLAR VA KREDITORLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	628
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
NARX BELGILASH-IQTISODIY MANFAATDORLIKNING ASOSIY OMILI VA NARXNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	635
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	



SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAHLIL QILISH.....	639
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TARIF STAVKALARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI FISKAL BARQARORLIKNI KUCHAYTIRISH (OZIQ-OVQAT IMPORTI MISOLIDA).....	644
Rizayev Mirmahmud Xotamjanovich	
IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINING XORIJ TAJRIBASI	652
Akrom Mardiyev	



IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINING XORIJ TAJRIBASI

Akrom Mardiyev

Xalqaro Nordik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: a.mardiev@xb.uz

Annotatsiya. Maqolada rivojlanayotgan davlatlarda ipoteka kreditlash jarayoning o'ziga xos xususiyatlari Rossiya Fedaratsiyasi, AQSH va Germaniya Federativ Respublikasi misolida yoritib berilgan. Mamlakatlarda ipoteka kreditlash jarayonlarining yutuqlari va kamchiliklarini keltirilgan. Rossiya Fedaratsiyasi, AQSH va Germaniya Federativ Respublikasida ipoteka kreditlash jarayoni tadqiqotlari natijalari bo'yicha respublikamizda ipoteka kreditlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ipoteka kreditlash, imtiyozli kreditlash, ixtisoslashgan kompaniyalar, uzoq muddatli investitsiya, ipoteka bozori.

Abstract. The article examines the features of the mortgage lending process in developed countries using the example of the Russian Federation, the USA and the Federal Republic of Germany. The advantages and disadvantages of mortgage lending processes in countries are listed. Based on the results of research into the mortgage lending process in the Russian Federation, the USA and the Federal Republic of Germany, recommendations have been developed that can be applied to improve the mortgage lending process in our Republic.

Keywords: Mortgage lending, preferential lending, specialized companies, long-term investment, mortgage lending market.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности процесса ипотечного кредитования в развитых странах на примере Российской Федерации, США и Федеративной Республики Германии. На основе результатов исследований процесса ипотечного кредитования в Российской Федерации, США и Федеративной Республике Германии разработаны рекомендации, которые могут быть применены для совершенствования процесса ипотечного кредитования в нашей Республике.

Ключевые слова: Ипотечное кредитование, льготное кредитование, специализированные компании, долгосрочное инвестирование, рынок ипотечного кредитования.

KIRISH

Uy-joy qurilishi mamlakat iqtisodiyoti yuksalishining asosiy omili bo'lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish, eng avvalo, farovonlik darajasining oshishiga olib keladi. Shubhasiz, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasining ortishi mamlakatdagi demografik ko'rsatkichlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ipoteka kreditlari nafaqat iqtisodiy o'sish va moliya bozori rivojiga, balki aholi turmush darajasi hamda bank tizimining barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatib, mamlakat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ipoteka kreditlash tizimlarining xorijiy tajribasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uy-joy moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka ta'sirini chuqur o'rganadi. F. van Hoenselaar va hamkorlari tomonidan OECD mamlakatlari misolida o'tkazilgan tahlillar ipoteka bozorlaridagi farqlar ko'pincha moliyaviy siyosat, kreditlash standartlari va davlat aralashuvi darajasi bilan izohlanishini ko'rsatadi. Ularning fikricha, foiz stavkalari turg'unligi va kredit muddatlarining moslashuvchanligi ipoteka tizimining barqarorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

J.Y. Campbell o'z tadqiqotlarida ipoteka mahsulotlarini loyihalash tamoyillarini tahlil qilib, foiz riskini boshqarish va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kredit bozorida tebranishlarni kamaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi. U ipoteka dizayni iste'molchi xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatishini, shuning uchun ipoteka siyosati makroprudensial yondashuv bilan uyg'unlashishi kerakligini qayd etgan.

A. Mian va A. Sufi o'zlarining uy-joy bozorlariga oid tadqiqotlarida ipoteka kreditlash hajmi bilan uy-joy



narxlar o'rtasidagi sabab—oqibat aloqasini aniqlab bergan. Ularning fikricha, kreditlashning haddan tashqari kengayishi, ayniqsa tartibga solinmagan bozor sharoitida, moliyaviy pufaklarning yuzaga kelishiga olib keladi. R.J. Shiller esa "Irrational Exuberance" asarida uy-joy narxlarining spekulativ oshishi ko'pincha iqtisodiy asosga emas, balki psixologik omillarga tayanishini isbotlagan.

L. Chiquier, O. Hassler va M. Lea tomonidan Jahon banki uchun tayyorlangan hisobotlarda ipoteka qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirishning afzalliklari yoritilgan. Mualliflar sekundar ipoteka bozorining mavjudligi kredit beruvchilarga likvidlik beradi, risklarni diversifikatsiya qiladi va kredit portfellarining sifatini oshiradi, deb hisoblaydi. D.M. Jaffee tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa o'tish davridagi iqtisodiyotlarda ipoteka tizimini shakllantirishda mulk huquqini himoya qilish, garov tizimini ishonchli yuritish va sud tizimi samaradorligini ta'minlash muhimligini ko'rsatgan.

V.C. Warnock va hamkasblari tomonidan uy-joy moliyalashtirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar, bozor mexanizmlarining xalqaro integratsiyasi kredit riskini kamaytirish bilan birga, iqtisodiyotda kapital aylanishini jadallashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Jahon banki va EBRD tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ipoteka tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlatning tartibga soluvchi roli va ijtimoiy himoya mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarurligi qayd etilgan.

Xorijiy adabiyotlardan olingan umumiy xulosalarga ko'ra, samarali ipoteka tizimi qonuniy kafolatlar, moliyaviy institutlarning barqarorligi va iste'molchilar uchun shaffoflik tamoyillariga asoslanishi kerak. Shuningdek, har bir mamlakat ipoteka modelini o'zining institutsional muhitiga moslashtirishi lozim, chunki universal yondashuv barcha iqtisodiyotlar uchun bir xil natija bermaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar Jahon banki, OECD va EBRD kabi xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar ipoteka bozorlariga oid statistik ma'lumotlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, dinamik o'sish ko'rsatkichlari va strukturaviy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlarda ipoteka kreditlash jarayoni muhim ijtimoiy muammolarni bartaraf etishning eng samarali vositasi bo'lib, moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, u qurilish sektorini ijobiy rag'batlantirib, aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirishga yordam beradi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ipoteka kreditlash moliyalashtirishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda Rossiya Federatsiyasida ipoteka kreditlari g'arb davlatlari singari sezilarli darajada rivojlangan.

Rossiya Federatsiyasida ipoteka bozori 1990-yillarda shakllandi. 1998-yil 16-iyulda qabul qilingan 102-FZ-sonli "Ipoteka (ko'chmas mulk garovi) to'g'risida"gi Federal qonun hamda 1997-yilda "Ipoteka kreditini rivojlantirish agentligi"ning tashkil etilishi ushbu jarayonni jadallashtirdi. Shuningdek, fuqarolarning ayrim toifalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari ipoteka tizimini yanada rivojlantirdi. Biroq ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramay, uy-joy xavfsizligi va aholining uy-joy bilan ta'minlanishi masalasi hali ham eng dolzarb va muhim ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Rossiya Federatsiyasida ipoteka kreditlari turar-joy mulkining turiga qarab ajratiladi: yangi qurilgan kvartiralar uchun (birlamchi bozor) va mavjud turar-joy fondidagi kvartiralar uchun (ikkilamchi bozor). Birlamchi bozorga ajratilayotgan kreditlar ko'chmas mulk huquqi hali ro'yxatdan o'tkazilmagan obyektlar uchun ham berilishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillarda Rossiya Federatsiyasida ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha ma'lumot^[1]

Muddat	Jami ajratilgan ipoteka kreditlari		Shundan,			
			Birlamchi bozorda ajratilgan ipoteka kreditlari		Ikkilamchi bozorda ipoteka kreditlari	
	Soni, ming. dona	Xajmi, mlrd rubl	Soni, ming. dona	Xajmi, mlrd rubl	Soni, ming. dona	Xajmi, mlrd rubl
2020	1570	3 886,0	434	1 332,0	1136	2 554,0
2021	1926	5 612,0	471	1 820,0	1455	3 792,0
2022	1341	4 757,0	406	1 979,0	935	2 778,0
2023	2013	7 691,0	654	3 253,0	1359	4 438,0
2024	1425	5 381,0	523	2 721,0	902	2 660,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan davr oralig'ida ipoteka kreditlarining jami soni va hajmi notekis o'sib borgan. 2021 va 2023-yillarda avvalgi yillarga nisbatan kreditlar soni hamda hajmi oshgan bo'lsa, 2022 va 2024-yillarda aksincha, bu ko'rsatkichlar pasaygan. Birlamchi bozorga ajratilgan kreditlarning soni va hajmi ortib borgan bo'lsa-da, ikkilamchi bozor uchun ajratilayotgan kreditlar kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Rossiya Federatsiyasida aholining ipoteka yukini yengillashtirishga qaratilgan bir qator imtiyozli ipoteka dasturlari mavjud [].

1. Uzoq Sharq ipotekasi. Ushbu dastur 2019-yil dekabr oyida qabul qilingan. Kreditning butun muddati davomida maksimal foiz stavkasi davlat tomonidan kafolatlanadi va 2 foizdan oshmaydi. Kredit muddati 20 yilgacha, maksimal miqdori esa 6 million rublni tashkil etadi. Kredit faqat Uzoq Sharq federal okrugi hududlarida (Amur viloyati, Buryatiya Respublikasi, Yahudiy viloyati, Zabaykal o'lkasi, Kamchatka o'lkasi, Magadan viloyati, Primorsk o'lkasi, Saxalin viloyati, Chukotka avtonom okrugi, Xabarovsk o'lkasi, Yakutiya Respublikasi) uy-joy sotib olish uchun beriladi. Kreditlash shartlariga ko'ra, turmush o'rtoqlarning yoshi 35 yoshdan oshmagan bo'lishi va 5 yil davomida ipoteka krediti yordamida sotib olingan kvartirada ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi. Dastur Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2019-yil 7-dekabrda 1609-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Imtiyozli ipoteka. Bu dastur doirasida davlat tomonidan subsidiyalashgan foiz stavkasi 8 foizdan oshmaydi. Imtiyozli foiz stavkasi butun kredit muddati davomida amal qiladi, banklarda o'rtacha 7,45–7,7 foiz atrofida belgilanadi.

3. Oilaviy ipoteka. 2018-yildan boshlab "Oilaviy ipoteka" dasturi joriy etilgan. U yangi binolarda, qurilish bosqichidagi yoki tugallangan uy-joylarda kvartira xarid qilishni moliyalashtirishga mo'ljallangan. Dastur 6 foizgacha bo'lgan imtiyozli foiz stavkalarida 30 yilgacha muddatli ipoteka kreditlarini taqdim etadi. Dastur Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2017-yil 30-dekabrda 1711-sonli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Qishloq ipotekasi. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2019-yil 30-noyabrda 1567-sonli qaroriga muvofiq 2020-yildan "Qishloq ipotekasi" dasturi ishga tushirilgan. Dastur shartlariga ko'ra, kredit obyekti joylashgan aholi punkti 30 ming kishidan ortiq bo'lmali va shahar tumanlari tarkibiga kirmasligi lozim. Kreditning maksimal miqdori 5 million rubl bo'lib, 25 yilgacha 3 foizgacha bo'lgan imtiyozli stavkalar qo'llaniladi. Leningrad viloyati, Yamalo-Nenets avtonom okrugi va Uzoq Sharq federal okrugi uchun maksimal miqdor 5 million rubl, boshqa hududlarda esa 3 million rubl qilib belgilangan. Dasturni Rosselkhozbank, Sberbank, VTB, Alfa-Bank, Sentr-Invest Bank, Bank Levoberejnyy, Ak Bars Bank, Energobank, RNKB Bank, Dalnevostochnyy Bank, Bank DOM.RF, AB "Rossiya", Sankt-Peterburg Bank, Kuban Kredit Bank, Primsotsbank hamda PAO FK Otkrytiye Banklari amalga oshiradi.

5. Harbiy xizmatchilar uchun ipoteka. Dastur 2005-yildan boshlab faoliyat yuritadi. Kreditlar harbiy xizmatchilarga 45 yoshga to'lguniga qadar, 20 yilgacha bo'lgan muddatda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etiladi. Dastur "Rosvoenipoteka" federal byudjet muassasasi tomonidan nazorat qilinadi.

6. IT-mutaxassislari uchun ipoteka. Mazkur dastur asosida IT-kompaniyalarda ishlovchi xodimlarga 5 foizgacha bo'lgan foiz stavkasida imtiyozli kreditlar beriladi. Kredit olish huquqiga Moliya vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilingan IT-kompaniyalarda kamida uch oy ishlagan Rossiya fuqarolari ega bo'ladi.

So'nggi yillarda Rossiya Federatsiyasida ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkalari oshmoqda. Bu holat mamlakatning tashqi iqtisodiy sharoitlari, moliya bozoridagi beqarorlik va geosiyosiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy cheklolar bilan izohlanadi. Shu sababli ipoteka dasturlarida aholining kredit yukini yengillashtirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda (2-jadval).

2-jadval. 2020-2024-yillarda Rossiya Federatsiyasida ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foizlar bo'yicha ma'lumot^[2].

Muddat	Ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foizi	Birlamchi bozorda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foizi	Ikkilamchi bozorda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foizi
2020	7,86	6,54	8,55
2021	7,43	5,92	8,16
2022	7,21	4,53	9,36
2023	8,07	5,61	9,81
2024	8,76	6,2	11,19



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi deyarli bir foizga oshgan. Ushbu oshish asosan ikkilamchi bozorda ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatdagi iqtisodiy muammolarga qaramay, aholi tomonidan ipoteka kreditlariga bo'lgan talab izchil oshib bormoqda (3-jadval).

3-jadval. 2020-2024-yillarda Rossiya Federatsiyasida ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati bo'yicha ma'lumot^[3]

Muddat	Ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati, mln. rubl	Birlamchi bozorda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati, mln. rubl	Ikkilamchi bozorda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati, mln. rubl
2020	2,44	3,03	2,23
2021	2,91	3,85	2,6
2022	3,57	5,07	2,89
2023	3,79	4,97	3,24
2024	3,74	5,28	2,92

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati o'sish tendensiyasiga ega. 2024-yilda 2020-yilga nisbatan ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati 1,3 million so'mga oshgan. Birlamchi bozorga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati sezilarli darajada oshgan bo'lsa, ikkilamchi bozorda ajratilgan kreditlarning o'rtacha qiymati deyarli o'zgarmagan. Bu holat mamlakat aholisining birlamchi bozordan uy-joy sotib olishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ajratilayotgan ipoteka kreditlarining muddati ham o'sib bormoqda. So'nggi yillarda ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha muddati keskin oshganini kuzatish mumkin (4-jadvalga qarang). 2024-yilda 2020-yilga nisbatan o'rtacha muddat 6–7 yilga uzaygan. Birlamchi bozorga ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha muddati 8–9 yilga oshgan bo'lsa, ikkilamchi bozor bo'yicha bu ko'rsatkich 5–6 yilga oshgan.

Rossiya Federatsiyasida ipoteka kreditlash jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki:

- ipoteka krediti aholining uy-joy bilan ta'minlanishining asosiy vositasi hisoblanadi;
- ipoteka predmeti har doim ko'chmas mulk bo'ladi. 102-FQ "Ipoteka to'g'risida"gi qonunga binoan, garov sifatida faqat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar qo'llanilishi mumkin;
- qarz oluvchi garov sifatida xizmat qiluvchi ko'chmas mulkning egasi bo'lib qoladi, biroq garov muddati davomida ushbu mulk ustidan notarial amaliyotlarni mustaqil amalga oshira olmaydi;
- ipoteka krediti uzoq muddatli bo'lib, odatda 20–30 yilga ajratiladi;
- aksariyat hollarda ipoteka kreditlari maqsadli yo'nalishga ega bo'lib, ko'chmas mulkni qurish, sotib olish yoki qayta qurish uchun beriladi.

Izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Mamlakatda aholining uy-joy bilan ta'minlanishi ijtimoiy va iqtisodiy muammolardan biri bo'lib, bu masalaning yechimi uy-joy qurilishining rivojlanish sur'atlari, aholining real farovonlik darajasi va davlatning uy-joy siyosati bilan chambarchas bog'liq.

Turar-joy sotib olish uchun kredit tizimining shakllanishi va undan foydalanish uy-joy bozoriga sezilarli miqdorda pul oqimini keltirib chiqaradi, qurilish tarmog'iga investitsiyalarni jalb etadi, buning natijasida bog'liq sohalar rivojlanadi hamda ish o'rinlari ko'payishi orqali aholi daromadlari ortadi.

Tijorat banklarining uzoq muddatli investitsiyalar uchun yetarli resursga ega emasligi, investorlar uchun soliq imtiyozlarining yo'qligi hamda ipoteka kreditlash sohasida qonunchilik bazasining to'liq shakllanmagani ushbu yo'nalishning rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

AQSH tajribasiga ko'ra, har bir fuqaro o'zining kredit tarixi, daromad darajasi va to'lov intizomidan kelib chiqib kredit reytingiga ega bo'ladi. Ushbu reyting odatda 700 dan yuqori bo'lishi kerak; past ko'rsatkich moliyaviy risklarning yuqoriligini bildiradi. Kredit reytingi banklarga qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash, risk darajasini aniqlash va foiz stavkasini belgilashda yordam beradi. Bu tizim ipoteka kreditlarini bozor mexanizmlari orqali tartibga solishga xizmat qiladi.

AQSHda ipoteka kreditlari ikki turdagi foiz stavkalari asosida taqdim etiladi:

- qat'iy foiz stavkasi (Fixed-Rate Mortgage);
- o'zgaruvchan foiz stavkasi (Adjustable-Rate Mortgage).

AQSHning zamonaviy ipoteka tizimi ikki bosqichli modelga asoslanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ipoteka banklari;
- kredit tashkilotlari;
- tijorat va omonat kassalari;
- pensiya jamg'armalari;
- sug'urta kompaniyalari.

Ajratilayotgan kreditlar manbasi sifatida:

— ipoteka va tijorat banklari tomonidan ipoteka aktivlarini sek'yuritizatsiya qilish orqali jalb qilingan mablag'lar;

— aholining jamg'arma mablag'lari hisoblanadi.

AQSHda ipoteka krediti olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar uchun quyidagi mezonlar belgilanadi:

- 25–75 yosh oralig'ida bo'lish;
- AQSHda rasmiy ish joyiga ega bo'lish;
- sotib olinayotgan mulkning umumiy qiymatining 10–50 foizini dastlabki to'lov sifatida to'lash imkoniyatiga ega bo'lish.

Bu talablar asosiy mezonlar sifatida belgilanadi, biroq ayrim moliyaviy institutlar tomonidan qo'shimcha shartlar qo'yilishi mumkin. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan inqirozlar va siyosiy o'zgarishlar natijasida AQSHda ajratilayotgan ipoteka kreditlari hajmi pasayish tendensiyasini namoyon qilmoqda (4-jadval).

4-jadval. 2020-2025-yillarda AQSH da ajatilgan va qayta rasmiylashtirilgan ipoteka kreditlarining qiymati bo'yicha ma'lumot, mlrd. AQSH dol.[4]

2020-yil	Ajratilgan kreditlar	1433,0
	Qayta rasmiylashtirilgan kreditlar	2395,0
2021-yil	Ajratilgan kreditlar	1646,0
	Qayta rasmiylashtirilgan kreditlar	2345,0
2022-yil	Ajratilgan kreditlar	1578,0
	Qayta rasmiylashtirilgan kreditlar	667,0
2023-yil	Ajratilgan kreditlar	1325,0
	Qayta rasmiylashtirilgan kreditlar	314,0
2024-yil	Ajratilgan kreditlar	1376,0
	Qayta rasmiylashtirilgan kreditlar	431,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'ngi yillarda ajratilayotgan kreditlar va qayta rasmiylashtirilgan kreditlar salmog'i keskin kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida, co'ngi yillarda ajatilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha foiz stavkalari oshib borayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Ajratilgan kreditlar salmog'i kamayishi qaramay ajatilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati va o'rtacha foiz stavkasi oshib bormoqda (5-jadval).



5-jadval. 2020-2025-yillarda AQSH da ajratilgan ipoteka kreditlarining o'rtacha qiymati bo'yicha ma'lumot, mlrd. AQSH dollari^[5].

Yillar	Ko'rsatgichlar	Summa
2020	o'rtacha summa	386,5
	stavka, foiz	2,86
2021	o'rtacha summa	401,6
	stavka, foiz	3,33
2022	o'rtacha summa	397,6
	stavka, foiz	6,58
2023	o'rtacha summa	415,5
	stavka, foiz	6,71
2024	o'rtacha summa	400,9
	stavka, foiz	6,99

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ajratilgan kreditlar salmog'i 2024-yilda 2020-yilda nisbatan 3,6 foizga oshgani ko'rishimiz mumkin. Bu holat ajratilayotgan kreditlar soni kamayib o'rtacha summasi oshib borayotganligidan va uy-joy narxini oshib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ajratilayotgan kreditlar foiz stavkalarini keskin ko'tarilganligi mamlakat xukumatidan olib borilayotgan qattiq monetar siyosat va resurs bazasini qimmatlashganidan dalolat beradi.

1. Birlamchi va ikkilamchi ko'chmas mulk bozorlari uchun ipoteka kreditlari mavjud.

2. Ipoteka kreditlari uzoq o'rtacha 30-40 yil muddatga berilishini hisobiga kreditlar bo'yicha foiz stavkasi minimal.

3. Raqobatning yuqori darajasi, bu mamlakat aholisining ko'pchiligi uchun qulaylikni nazarda tutadi, chunki har bir bank o'z mijozini saqlab qolishga harakat qiladi. Ipoteka krediti bo'yicha so'rovga rad javobini berish holati juda kam uchraydi.

4. 25 yoshdan 75 yoshgacha ipoteka kreditlari uchun ariza topshirishilishi mumkin.

5. Zarur bo'lganda ipoteka kreditlarining qayta rasmiylashtirish imkoniyati mavjud.

7. Teskari ipoteka imkoniyati mavjud.

8. Banklar o'z mijozlari ipoteka kreditlarini boshqa kompaniyalarga sotishlari va o'z mablag'larini oldindan qaytarishlari mumkin.

9. 2008-yil yuzaga kelgan ipoteka kreditlari bozorida kelgan inqirozga asosan "past sifatli" (subprime) sabab bo'ldi.

Germaniyada, AQSH dan farqli ravishda bir bosqichli ipoteka kreditlash tizimi mavjud. Bu modelning ikki darajali AQSH tizimidan farqi shundaki, kreditor va investor rolini bitta subyekt, ya'ni kredit beruvchi, qimmatli qog'ozlar bozorining mustaqil ishtirokchisi sifatida qimmatli qog'ozlarni chiqarishni bank bajaradi. Natijada, nemis banklari mustaqil ravishda o'z qimmatli qog'ozlarining emitentlari vazifasini bajarishlari uchun aktivlar va passivlar balansini saqlash uchun yetarli darajada katta ustav kapitalini yaratishi bo'ladi.

Germaniya banklaridan kredit quyidagi shartlarda olinishi mumkin: 1. Kredit olish uchun zarur boshlang'ich to'lov umumiy kredit summasining 50 foizini tashkil qilishi kerak;

2. Ipoteka kreditlari 5 yildan 30 yilgacha ajratiladi;

3. Ipoteka krediti olish uchun mijoz yoshi 21 yoshdan 65 yoshgacha bo'lishi kerak;

4. Ipoteka kreditlarini yuridik shaxslar ham, jismoniy shaxslar ham kredit olishlari mumkin;

5. Mijozning Germaniya xududida o'z daromadlarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim yetishlari kerak. Ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar ham hisobga olinadi.

Germaniya ipoteka krediti ajratish tizimida kreditlarning uch turi mavjud^[6]: oddiy to'lov sxemasiga ega bo'lgan kredit, belgilangan foiz stavkasi bilan kredit va bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan ajratilgan kreditlar.

1. Oddiy to'lov sxemasiga ega bo'lgan kredit - bu ipoteka krediti operatsiyalarida keng tarqalgan kredit turi bo'lib, ipoteka kredit summasi mijoz tomonidan oylik annuitet to'lovlari kredit muddati davomida teng miqdorda to'lanadi. Ushbu to'lovlar asosiy qarz va bank foizlarini o'z ichiga oladi. Mijoz kreditni muddatidan oldin to'lash imkoniyati to'g'risida bank bilan muzokaralar olib borishi mumkin - katta yehtimol bilan, bu holda kredit stavkasi yuqoriroq bo'ladi. Agar bunday imkoniyat oldindan berilmagan bo'lsa, mijoz jarima to'lashi kerak.

5 www.statista.com/statistics/275722/mortgage-originations-in-the-united-states/

6 Luzan Ye.N. Vidy ipotechnogo kreditovaniya v Germanii //Intellectualnyy potentsial XXI veka: stupeni poznaniya – 2012.- №2. -s. 345

2. Belgilangan stavkali kredit - bu qarz oluvchi barcha to'lov muddati davomida faqat kelishilgan foizlarni oylik bo'lib to'laydi. Va kredit summasining o'zi muddat oxirida bir martalik to'lov shaklida bir to'lovda to'lanadi.

3. Bo'lib-bo'lib to'lash ssudasi, ulushi qisman to'lovlarda amalga oshirilishi kerak bo'lib, berilgan summa o'zgarishsiz qoladi, ya'ni to'lovdan to'lovgacha ko'paymaydi.

Germaniya ipoteka kreditlash bozorida yana bir ko'p ishlatiladigan kredit turlaridan qurilish uchun ajratiladigan kreditlar hisoblanadi. Banklar uy-joy sotib olish uchun kredit beradigan ixtisoslashgan banklar hisob raqamga mijozlar tomonidan ma'lum miqdorda pul qo'yishlari va keyin esa kredit olishlari mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'ngi besh yil ichida YEI mamlakatlarida ipoteka kreditlari dinamikasi sezilarli o'zgarishsiz bo'lib turibdi. Bunga asosasiy sabab sifatida ajratilayotgan ipoteka kreditlari uchun belgilangan foiz stavkalari o'sib borayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Izlanishlar natijasida, Germaniyada ipoteka kreditlarini jarayoni bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1. Mamlakat ipoteka kreditlash tizimi bir bosqichdan iborat. Bu modelda kreditor va investor rolini bitta subyekt, ya'ni kredit beruvchi, qimmatli qog'ozlar bozorining mustaqil ishtirokchisi sifatida bank bajaradi.

2. Mamlakatda aholini uy-joy bilan ta'minlashda bozor iqtisodiyoti talablari to'liq qo'llaniladi.

3. Ipoteka kreditlari o'zoq muddatga berilishi mijozlar uchun to'lov yuki me'yorda bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Izlanishlar natijasida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ipoteka kreditlash mamlakat iqtisodiyoti yuksalishining asosiy omili bo'lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ipoteka kreditlari nafaqat iqtisodiy o'sish va moliya bozori, balki aholi turmush darajasi va bank tizimiga ham ta'sir ko'rsatib, mamlakat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Rossiya Fedaratsiyasi, AQSH va Germaniya Federativ Respublikasida ipoteka kreditlash jarayoning tahlili natijalari asosida qo'yidagi ishlanmalarni mamlakatimizda ipoteka kreditlash jarayonini takomillashtirish uchun qo'llash mumkin deb hisoblaymiz:

1. Ipoteka kreditlarini ajratish bo'yicha yosh doirasini qaytada ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda, bu yosh 18-60 yosh qilib belgilangan. Lekin, 18-20 yosh orasida qarzдорlarda hali to'lov qobiliyati va ma'suliyati to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu yosh orasini 21-65 yosh qilib belgilanishi zarur.

2. Bugungi kunda mamlakatimizda ipoteka kreditlari foiz stavkalari 17-26 foiz oralig'ida bo'lib turibdi. Fikrimizcha, aholi tulov qobiliyatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bu juda yuqori. 2-7 foiz atrofida foiz stavkasi belgilanishi lozim.

3. Uy-joy qurilish tizimi nazorati takomillashtirilishi lozim. Boshlang'ich to'lov tizimi davlat nazorati va kafilligi orqali amalga oshirilishi lozim. Bu holat mamlakatimizda ham so'ngi kunlarda ko'p uchrab turgan o'z vaqtida qurib bitkazilmayotgan uylar muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

4. Zarur bo'lganda ipoteka kreditlarining qayta rasmiylashtirish imkoniyatini berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. www.frankrg.com/data-hub/category/mortgage;
2. Обухова А. С., Биктагирова Э. В., Владимирова А. Р. Ипотечное кредитование в Российской Федерации // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Экономика. Социология. Менеджмент. 2024. Т. 14, № 1. С. 164–177. <https://doi.org/10.21869/2223-1552-2024-14-1-164-177>;
3. Ипотека. На основе данных Frank RG, банков и ЦБ, мы собрали всю информацию об ипотечных кредитах в России и сделали ее удобной для использования. www.frankrg.com/data-hub/category/mortgage;
4. www.federalreserve.com;
5. www.statista.com/statistics/275722/mortgage-originations-in-the-united-states/
6. European Mortgage Federation (www.hypo.org);
7. Лузан Е.Н. Виды ипотечного кредитования в Германии //Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания – 2012.- №2. -с. 345
8. European central bank (www.data.ecb.europa.eu)
9. Лузан Е.Н. “Виды ипотечного кредитования в Германии” //Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания – 2012.- №2. -с.
10. European Mortgage Federation (www.hypo.org), European central bank (www.data.ecb.europa.eu) сайтлари маълумотларига асосан тадқиқотчи томонидан тузилди.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100